



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n   i l m i y   j u r n a l

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan  
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat  
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv”  
jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga  
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy  
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

## TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*  
ISHQUVATOV Valiqlul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*  
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*  
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*  
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*  
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*  
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*  
JABBAROV Ulug'bek Abduraxmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*  
HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*  
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*  
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*  
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*  
Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*  
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*  
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*  
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*  
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*  
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*  
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*  
Сайдивалиева Хуршида Ходжаикбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*  
Атамуратов Расулжон Кадирджонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*  
Содикова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*  
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*  
Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*  
Жаббаров Улугбек Абдурахманович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*  
Ходжиев Расулбек Бойназар оглы – *доктор философии (PhD) по философским наукам.*

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

### MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*  
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*  
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*  
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*  
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*  
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*  
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*  
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*  
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*  
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*  
Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*  
Atamuratov Rasuldjon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*  
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*  
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*  
Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*  
Khodjiev Rasulbek Boynazar ogly – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

*SOTSILOGIYA*

|                                                                                                                                                 |   |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| <b>Usmonova R.M.</b> O'zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili ..... | 4 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|

*JAMIYAT VA OILA*

|                                                                                                                                          |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Axunov M.M.</b> Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....                                                | 17 |
| <b>Yulchiyeva D.</b> Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati .....      | 26 |
| <b>Davlatova H.U.</b> Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko'lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish..... | 36 |

*IJTIMOY PEDAGOGIKA*

|                                                                                                                                                            |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Matkarimov A.M.</b> Oilada ta'lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlarini .....                                                         | 46 |
| <b>Ummatkulova N.</b> Oila va maktab hamkorligida o'smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....                                                | 53 |
| <b>Qahhorova F.Y.</b> Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari .....                                                                                    | 60 |
| <b>Rustamova N.Y.</b> Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....                 | 67 |
| <b>Egamberdiyeva G.B.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni..... | 79 |

*IJTIMOY PSIXOLOGIYA*

|                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Arzikulov D.N.</b> Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari..... | 89  |
| <b>Shamsiyev O'.B.</b> Bolalar chapaqayligi xususida .....                                                         | 94  |
| <b>Абдуганиева Д.А.</b> Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности .....       | 100 |
| <b>Xudoyorova M.X.</b> Ta'lim psixologiyasining talabalar o'zlashtirishidagi ahamiyati .....                       | 109 |
| <b>Ashurova A.N.</b> O'smirlik davrida o'z-o'zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari .....           | 119 |
| <b>Nazarova M.Y.</b> Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo'ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....           | 127 |

**Arzikulov Dilshod Ne'matovich,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti,  
Psixologiya kafedrası professori v.b.,  
psixologiya fanlari doktori*



## MUTAXASSISLAR SHAXSIY-KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING AXLOQIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jinoyatchilikning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining fuqarolar bilan psixologik muloqot o'rnatish jarayonida zarur bo'ladigan psixologik bilimlar zarurati nazariy tahlil qilngan. Shuningdek, kasbiy muloqotni psixologik bilimlar asosida takomillashtirish yo'llari, faoliyatda turli toifadagi fuqarolar bilan munosabatga kirishishda muloqotning kommunikativ vositalaridan to'g'ri va unumli foydalanishning psixologik usullarini egallash hamda ko'nikma va malakalarni shakllantirishda zarur bo'ladigan kasbiy fazilatlarni rivojlantirish xususida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** В данной статье теоретически анализируется необходимость психологических знаний для сотрудников правоохранительных органов в процессе установления психологического взаимодействия с гражданами, что важно в предотвращении преступности и обеспечении общественной безопасности. Рассматриваются пути совершенствования профессионального общения на основе психологических знаний. Также обсуждаются психологические методы эффективного использования коммуникативных средств при взаимодействии с гражданами различных категорий в служебной деятельности, а также развитие профессиональных качеств, необходимых для овладения навыками и умениями в этой области.

**Annotation.** This article provides a theoretical analysis of the necessity of psychological knowledge for law enforcement officers in the process of establishing psychological interaction with citizens, which is crucial for crime prevention and ensuring public safety. It examines ways to improve professional communication based on psychological knowledge. The article also discusses psychological methods for effectively using communicative tools in interactions with citizens of various categories during service activities, as well as the development of professional qualities necessary for mastering skills and competencies in this area.

**Tayanch soʻzlar:** *muomala, muloqat, kommunikativ, kasbiy faoliyat, psixologik taʼsir, muloqot jarayoni, psixologik toʻsiq, ijtimoiy-psixologik fazilat.*

**Ключевые слова:** *общение, коммуникация, профессиональная деятельность, психологическое воздействие, процесс общения, психологический барьер, социально-психологические качества.*

**Keywords:** *communication, interaction, professional activity, psychological influence, communication process, psychological barrier, socio-psychological qualities.*

**Kirish.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida mamlakatni modrenizatsiya qilish va rivojlangan fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlar jadal surʼatlar bilan izchil davom ettirilib, inson omili – eng oliy qadriyat ekani eʼtirof etib kelinmoqda. Shundan kelib chiqib, huquqni muhofaza qilish sohalarini isloh qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini taʼminlashda inson huquqlari boʻyicha xalqaro standartlarni Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi va amaliyotiga implementatsiya qilinishi huquqni muhofaza qilish organlari, sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari, shuningdek, milliy gvardiya tizimi faoliyatini takomillashtirish va isloh qilish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Shu bois huquqni muhofaza qilish organi xodimlari oʻz faoliyatini amalga oshirishda inson huquqlari, qonuniylik va insonparvarlik tamoyillariga rioya etishi ularning kasb mahoratining yuksakligini belgilaydi.

Shuni alohida eʼtirof etish zarurki, bugungi kunda ayrim hollarda huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining psixologik qiyinchiliklarni yengishga tayyorgarligi, insonparvarlik va qonuniylik tamoyillariga tayangan holda faoliyat yuritishi hali kundalik hodisaga aylanmaganligi koʻzga tashlanmoqda.

Huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining kasbiy-psixologik jihatdan yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi uning kasb mahorati va faoliyatiga slabiy taʼsir etib kelmoqda.

**Asosiy qism.** Xodim fuqarolarning xatti-harakatlari va munosabatlarini tahlil qilish va tartibga solishda oʻz boʻlsa, kuch ishlatishga asoslangan usullardan, yaʼni dilxiralik va zoʻravonlik qilish, qoʻrqitish, qiynoqqa solish va boshqa gʻayriqonuniy choralardan foydalanishga undovchi vaziyatga tushib qoladi.

Kerakli kasbiy psixologik tayyorgarlikning yoʻqligi – xodim beparvoligining muhim sabablaridan biri boʻlib, toshbagʻirlik, rasmiyatchilik, oʻz vakolatlarini suiisteʼmol qilish, qonuniylikni buzish va jiddiy kasbiy xatolarning bitmas-tuganmas manbayidir.

Shuning uchun huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining kasb faoliyatini psixologik jihatdan tahlil qilish, uning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, tarkibiy tuzilishini ochib berish juda zarur. Kasbiy faoliyatning qonuniyatlarini aniqlash uni nafaqat o'rganishga, balki takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar tizimini ishlab chiqish inson huquqlari va qonuniylikni mustahkamlashga imkon beradi.

Kasbiy faoliyatning asosiy psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini sirdan ko'rib chiqish ham xodimning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi.

Kasbiy faoliyat xodimga ko'plab talablarni qo'yadi. Ular orasida eng muhimlaridan biri – xodimlarda kasbiy jihatdan muhim shaxsiy-kasbiy sifatlarning rivojlangan bo'lishi.

**Huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining shaxsida rivojlantirilishi lozim bo'lgan muhim shaxsiy-kasbiy sifatlari:**

- shaxsga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;
- psixologik barqarorlik;
- rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;
- yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;
- turli toifadagi kishilar bilan tez aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish va saqlay olish;
- turli xil profilaktik ishlarni amalga oshirishda shaxslarga psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;
- rivojlangan tafakkur, kuchli aqliy mehnatga moyillik, farosat, rivojlangan intuitsiya;
- ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Yuqorida keltirilgan sifatlari insonga avvaldan xos emas, balki ularni kasbiy ta'lim tarbiya jarayonida shakllantirish va rivojlantirish davomli va qiyin jarayon bo'lsa-da, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy shakllanishi uchun zarur shart hisoblanadi.

Ushbu sifatlarning xodim shaxsida bo'lmashligi yoki yetarli darajada rivojlanmaganligi uning o'z professional kasbiy vazifalarini me'yorida bajarishiga xalaqit beradi.

**Huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining professional vazifalarini me'yorida bajarishiga tusqinlik qiluvchi omillar:**

- xodim faoliyatda xatolarga yo'l qo'yish;
- o'z kasbiga moslasha olmaslik;
- kasbiy buzilishlar.

***Kasbiy faoliyatning qonuniyatlarini aniqlash uni nafaqat o'rganishga, balki takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar tizimini ishlab chiqish inson huquqlari va qonuniylikni mustahkamlashga imkon beradi.***

*Xodim faoliyatidagi kasbiy-psixologik xususiyatlar tufayli doimiy ruhiy zo'riqish holatida bo'ladi va ma'lum ma'noda inson huquqlari va qonunchilikning buzilishi kuzatiladi. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida inson huquqlari va qonuniylikni mustahkamlash borasida ularga bir qator talablar qo'yiladi.*

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining faoliyati kasbiy-psixologik xususiyatlarga ega.

**Huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining kasbiy-psixologik xususiyatlari:**

- huquqni muhofaza qilish organi xodimlari faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligi;
- qonun va kasb axloqi normalarida ifodalanadigan keng taktik maydonning mavjudligi;
- hokimiyat vakolatiga egaligi;
- manfaatdor shaxslarning doimiy ravishda qarshilik ko'rsatishi va to'sqinlik qilishi;
- keng doiradagi muhit bilan muomala qila olish qobiliyatini bildiruvchi muloqotmandligi (kommunikativligi);
- vaqt tanqisligi;
- ishning haddan tashqari ko'pligi.

Xodim o'z faoliyatidagi mazkur kasbiy-psixologik xususiyatlar tufayli doimiy ruhiy zo'riqish holatida bo'ladi va ma'lum ma'noda inson huquqlari va qonunchilikning buzilishi kuzatiladi. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida inson huquqlari va qonuniylikni mustahkamlash borasida bir qator talablar qo'yiladi.

Ular orasida eng muhimlaridan biri – xodimlarda kasbiy jihatdan muhim axloqiy-psixologik omillarni rivojlantirishni ta'minlash. Jumladan:

**Axloqiy-psixologik omillar:**

- xodim shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;
- xodimlardagi psixologik barqarorlik;
- xodimlardagi rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik va oqilona tavakkalga moyillik;
- xodimlardagi yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;
- xodimlarning turli toifadagi kishilar bilan tezda aloqaga kirisha olishi, ishonchli munosabatlar o'rnatish olishi va saqlay olishi;
- xodimlarning turli xil operativ xizmat vazifalarini bajarishda fuqarolarga psixologik ta'sir ko'rsata olish qobiliyati;
- xodimlarning rolga, ya'ni boshqa qiyofaga kira olishi;
- xodimlardagi rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira va ijodiy tasavvuri;
- xodimlardagi rivojlangan tafakkur, mantiqiy aqliy ishga moyillik, farosat va rivojlangan intuitsiya;
- xodimlardagi ziyraklik va murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ushbu sifatlar insonda tug’ilganidan boshlab paydo bo’lmaydi. Ularni tarkib toptirish, shakllantirish va rivojlantirish davomli va qiyin jarayon hisoblanadi. Bu shaxsiy-kasbiy sifatlar ichki huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining professional kasbiy shakllanishi uchun zaruriy sanalib, ushbu xislatlarning xodim shaxsida to’la tarkib topmaganligi yoki yetarli darajada rivojlanmaganligi uning o’z funksional xizmat vazifalarini qonuniylik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda normal bajarishiga xalaqit beradi.

Uning faoliyatida xatolarga yo’l qo’yishiga olib keladi, xodimning o’z kasbiga to’la axloqiy-ruhiy moslasha olmasligi inson huquqlari va qonuniylikning buzilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan xodimlarda ushbu kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan kasbiy-psixologik tayyorgarlikni ularni kasbga tayyorlash jarayonida, ya’ni ta’lim-tarbiya muassasidagi tahsil olish davridan boshlab xalqara umuminsoniy axloq va huquq norma va prinsiplriga sodiqlik ruhida tarbiyalashdan boshlash zarurdir.

**Xulosa.** Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda huquqni muhofaza qilish organi xodimlarining kasbiy faoliyati samaradorligini ta’minlaydigan zaruriy, kasbiy-professional jihatdan muhim xislatlarni rivojlantirish, ular faoliyatining ishonchliligini oshiruvchi psixologik usullarni o’rganish, odamlar bilan mohirona ishlashga yordam beruvchi usullarni o’zlashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Васильев В.Л. Юридическая психология. – Москва, 2000.
2. Еникеев М.И. Юридическая психология. – Москва, 2005.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург, 2006.
4. Arzikulov D.N. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar bilan psixologik muloqat o’rnatish usullari. // “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali. ISSN2181-9335 2-soni, 2023.
5. Arzikulov D.N. Social-psychological Aspects of the Concept of Professional Culture of Military Personnel in the System of Ensuring Public Security. // International journal of human computing studies <https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS> e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 05 Issue: 03 | Mar 2023.

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

---

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT**  
**СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ**  
**FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy  
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni  
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»  
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.  
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,  
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных  
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and  
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.  
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific  
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions  
of makhalla, family and gender equality.*

**MUASSIS:**

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,  
Jabborov U., E.Sultonov**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ bosmaхонасида chop etildi.

Тошкент, Олмазор тумани, Чимбой кўчаси, 8-уй.